

ZAMONAVIY TRAKTORLAR

Aslanova Aziza Baxshilloyevna

Vobkent sanoat va transport texnikumi

azizaaslonova790@gmail.com

+998907448207

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy traktorlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy Traktor, qishloq xo'jaligi, tirkama, o'rnatma, Bug' mashinasi, Monarch

Traktor (inglizcha: tractor, lot. traho — tortaman, tashiyman) — dvigatel yordamida harakatlanuvchi g'ildirakli yoki gusenitsali (zanjirli) o'ziyurar mashina. Traktor qurilish, qishloq xo'jaligi ishlari va boshqa ishlarni bajarish, tirkama, o'rnatma va yarim o'rnatma jihozlarni tortish va harakatlantirish, muqim (statsionar) mashinalarni ishga tushirish uchun mo'ljallangan.

Bug' mashinasi o'rnatilgan birinchi gildirakli traktor 1830-yilda Angliya va Fransiyada paydo bo'lgan, transport va harbiy ishda ishlatilgan. 1890-yilda AQSHda qishloq xo'jaligi ishlarida qo'llanilgan. Gusenitsali traktorni Rossiyada D. A. Zagryajskiy (1837) va A. P. KostikovAlmazovlar (1889) ixtiro qilishgan. 1988-yilda rus mexanigi F. A. Blinov bug' mashinasi o'rnatilgan gusenitsali traktor yasab sinovdan o'tkazgan. 1895-yilda rus ixtirochisi Ya. V. Mamin ichki yonuv dvigateli o'rnatilgan o'ziyurar gildirakli arava ixtiro qilgan. AQShdagi "XartParr" (HartParr) firmasi 1901-yildan boshlab ichki yonuv dvigateli o'rnatilgan g'ildirakli traktor ishlab



chiqara boshladi. 1912-yildan AQShda, keyinchalik Germaniya va boshqa mamlakatlarda gusenitsapi traktor ishlab chiqarila boshlandi. O‘zbekistonda 1967-yil Toshkent traktor zavodida paxtaga modifikatsiya qilingan g‘ildirakli traktorlar ishlab chiqarila boshladi.

Monarch jahondagi ilk haydovchisiz boshqariladigan elektr traktorni taqdim etdi AQShning Monarch Tractor kompaniyasi dunyodagi ilk aqlli traktorni namoyish qildi. MK4 nomli traktorlar joriy yilning kuzidan boshlab mijozlarga yetkazib berila boshlaydi.

Fermerlarning orzusi

Bir tomondan qarasa, g‘ayrioddiy biror narsa o‘zgarmagan, oddiy traktorlardan farqi katta emas. Boshqa tarafdin qaraganda, qishloq xo‘jaligi ishlari uchun hali haydovchisiz transport vositalari mavjud emasdi. Shuning uchun ham Monarch traktorlari misli ko‘rilmagan ixtiro.

G‘ildirakli mo‘jiza 3tasi 1da seriyasidan. Aniqrog‘i, Monarch traktor sifatida ishlashidan tashqari, istalgan yerda yura oladigan transport va dala sharoitida mobil generator vazifasini ham bajara oladi.

«Biz qishloq xo‘jaligining hozirgi kundagi ehtiyojlarini qondirish va fermerlar imkoniyatlarini kengaytirish va ularga intellektual instrumentlarni taqdim etish maqsadida fermerlar jamoasi, muhandislar va dunyo miqyosidagi olimlarni to‘pladik. Monarch traktori qishloq xo‘jaligida benazir intellekt, texnologiyalar va xavfsizlik funksiyalari bilan raqamli transformatsiyaga yo‘l ochadi», deydi Monarch kompaniyasi bosh direktori Pravin Penmetsa.

Haydovchisiz elektr traktor zamonaviy qishloq xo‘jaligidagi juda muhim quyidagi muammolarni hal qiladi:

- ishchi kuchi yetishmovchiligi bor sharoitda fermerlar aqlli qurilma va mexanizmlarga kuchli qiziqish bildirishyapti;
- batareyasiga 10 yillik kafolatga ega qishloq xo‘jaligi haydovchisiz vositasi foydalanishda oddiy traktorga nisbatan arzonroqqa tushadi;
- xavfsizlik va ekologik tozalik – Monarch’ning eng asosiy ustunliklari.

Traktor modellarining texnik jihatlarini batafsil yozishga hojat yo‘q. Zero, traktorlarning ilk partiyasi mijozlar qo‘liga yetib borguniga qadar, o‘zgarishlarga uchrashi aniq. Traktor eng zamonaviy texnologiyalar bilan «qurollangan» – atrofni 360 darajada kuzatish, qishloq xo‘jalik ekinlarini tanib olish (buning uchun kunlik 240 GB.lik ma'lumotlar qayta ishlanadi), avariyaalarning oldini olish, harakatlar yo‘nalishi va qishloq xo‘jaligi ishlarini optimizatsiya qilish va hokazo.



Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/83461471>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Traktor>